

O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARI XORIJIY TILLARDA



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-26-316-319>

Arifova Umida Abdumalikovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

tayanch doktoranti

umidaarifova2@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘tkir Hoshimov asarlarining turli tillarga tarjimalari va ularning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Unda yozuvchining milliy koloritga boy asarlari tarjimasida realiyalarni, muqobilsiz leksikani yetkazish masalalari yoritilgan. Shuningdek, “Dunyoning ishlari”, “Nur borki, soya bor”, “Ikki eshik orasi” kabi mashhur asarlarining rus, ingliz, turk, xitoy tillaridagi tarjimalari ilmiy asosda qiyoslanadi.

Kalit so‘zlar: soxta ekvivalentlar, milliy kolorit, badiiy uslub, muqobilsiz leksika, milliylik.

Abstract. This article analyzes the translations of Utkir Khoshimov’s works into various languages and their distinctive features. It highlights the issues of conveying cultural realia and non-equivalent vocabulary when translating the writer’s works, which are rich in national color. Furthermore, a scholarly comparison is made of the translations of such well-known works as “Dunyoning ishlari” (“Earthly Affairs”), “Nur borki, soya bor” (“Where There Is Light, There Is Shadow”), and “Ikki eshik orasi” (“Between Two Doors”) into Russian, English, Turkish, and Chinese.

Keywords: false equivalents, national color, literary style, non-equivalent vocabulary, cultural specificity.

O‘tkir Hoshimov o‘zbek adabiyotining XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi eng yorqin vakillaridan biridir. Uning asarlari xalq hayotiga yaqinligi, milliy-madaniy qadriyatlarning yorqin ifodalanilishi, xalqona ibora va maqollarining keng qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari”, “Ikki eshik orasi”, “Nur borki, soya bor” singari asarlari nafaqat o‘zbek kitobxonining ma’naviy olamida, balki rus, turk, ingliz va xitoy kitobxonlari orasida ham keng o‘qilmoqda. Mazkur asarlarning tarjimalari, bir tomondan, milliy adabiyotimizni dunyoga tanitayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tarjimashunoslik uchun qimmatli ilmiy material vazifasini bajaradi. Chunki O‘tkir Hoshimov asarlari o‘zbek

xalqining turmush tarzi, qadriyatlari, mentalitetini ifodalovchi realiyalar, maqol va iboralar, muqobilsiz leksikaga boyligi bilan ajralib turadi. Oʻtkir Hoshimovning mashhur “Dunyoning ishlari” qissasi ingliz, rus, xitoy, turk va boshqa tillarga oʻgirilib, xalqaro kitobxonlar orasida ham maʼlum darajada tarqalgan. Jumladan, ingliz tarjimashunos olimi Mark Riz va Abdulloh Roʻziyev Oʻtkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari”, “Such is life” qissalarining ingliz tiliga tarjimasini taqdim etgan [Oʻtkir Hoshimov 2024.]

Oʻ. Hoshimov oʻzining ochiq, boy nasriy uslubi va zamonaviyligi bilan ajralib turadi. Jumladan, Oʻ. Hoshimov urush yillarida markaziy osiyoliklar koʻrgan qurbonliklarni koʻrsatadi. U urush alamli, achchiq ekanini koʻrsatgan. Xursand boʻladigan hech narsa yoʻq. Odamlar frontga ketib, oilalariga qaytmagan. Odamlarga bu juda qimmatga tushgan”, - deya oʻz fikrlari bilan oʻrtoqlashdi Mark Riz [R.Mark, A.Ruziyev 2024: 10]. Mark Riz va Abdulloh Roʻziyev tomonidan qilingan “Dunyoning ishlari” tarjimasida asosan dinamik ekvivalentlik usuli qoʻllanilgan. Tarjimonlar milliy soʻzlarni (masalan, “sumalak, doʻppi, mahalla”) transliteratsiya qilib, baʼzan qisqa izohlar bilan izohlashgan.

Rus tarjimashunosi Galina Koval “Dunyoning ishlari” (“Дела Земные”) tarjimasida asardagi milliy xos soʻzlar va realiyalarning berilishini talqin qilgan [Koval G. 2017:45]. Tarjimon soʻzma-soʻz tarjima usulidan foydalanib, rus tili tarjimalarida orginalga yaqinlikni saqlangan. G.Koval oʻzbek xalq maqollarini baʼzan rus maqollariga moslashtirib, baʼzi joylarida asl shaklida qoldirib, izohi bilan beriladi. Bu usul milliy koloritni toʻliq yetkazishga yordam bergan boʻlsada, ayrim hollarda jumalarni ogʻir va suniy boʻlib qolganligini kuzatishimiz mumkin.

Turk tarjimoni Mahir Ünlü, “Dünyanın İşleri”, “Dunyoning ishlari” asarining tarjima qilish jarayonida soxta ekvivalentlardan mohirona foydalanganligini kuzatishimiz mumkin. Tarjimon oʻzbek va turk tillari bir biriga yaqin tillar boʻlganligi sababli Mahir Ünlü ayrim realiyalarni turk madaniyatiga yaqinroq soʻzlar bilan almashtirgan. Tarjimon Oʻtkir Hoshimovning tili, jonli oʻzbek tili, asar yozish uslubi esa shaharda, qishloqda, fabrikada va dalada mehnat qilayotgan oʻzbek halqining nutq uslubi ekanligini taʼkidlaydi.

Oʻzbek tarjimashunos olimi X.Hamidov oʻzining “Oʻ.Hoshimov asarlari turk tilida” nomli monografiyasida shunday degan: darhaqiqat, oʻzbek va turk tillari bir tillar oilasiga mansub boʻlgani bois tarjimonlar “soxta ekvivalentlar”ga koʻp duch keladilar. Oʻ.Hoshimov asarlari tarjimalarida bunday misollar koʻp uchraydi. Badiiy asarning milliyligini belgilaydigan asosiy vositalardan biri boʻlgan realiyalarning tarjimada toʻgʻri berilishi orginal asarning milliy toʻqimasini oʻzga tilda beshikast qayta yaratish muammosini maʼlum maʼnoda hal etilishini taʼminlaydi. Bu yerda, dastavval, realiya va termin tushunchasi orasidagi farqni koʻrsatish kerak boʻladi.

Terminlar boshqa leksik birliklardan farqli o'laroq muayyan bir tushuncha, predmet, hodisalar nomini ifodalab, bir ma'noli, sinonimsiz ko'pincha o'zlashtirma so'zlardan tashkil topgan bo'ladi. Ayni paytda bunday xususiyatlar realiyalarda ham mavjud. Biroq ular o'rtasida ma'lum ma'noda farqlar ham bor. Masalan, realiyalar ham ekvivalentsiz leksika hisoblansa-da, termin kabi tarjima tilida har qanday kontekst ichida bir xilda turmaydi [Hamidov X. 2020: 54].

Xayrulla Hamidov va uning shogirdlari tomonidan adibning "Yanga", "Tasodif", "Urushning so'nggi qurboni", "Baxt", "G'aroyib sayohat" kabi bir qancha hikoyalari turk tiliga tarjima qilingan. Shuningdek, "Dunyoning ishlari" va "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" nomli asarlaridan parchalar turk tilida ham chop etilgan. Badiiy uslubning tarjimada ifodalanishi – O'. Hoshimovning o'ziga xos yozuvchilik uslubi, xalqona iboralardan, maqol va matallardan keng foydalanishi tarjimada qanday aks etishi masalasi muhim o'rin tutadi [Hoshimov O'. 1982: 23]. Bunday mutanosiblik ijodkorning mahorati va ijodiy tajribasi, asar mazmunining g'oyaviy barkamoligi, asardagi badiiy haqiqatning mantiqqa mos kelishi bilan bog'liq.

Tarjimashunoslikda badiiylikning faqat o'zi emas, balki uning tarjimada qay darajada berilganligi, soddaroq aytganda, yozuvchining mahorati emas, tarjimonning mahorati masalalari ko'rib chiqiladi [Hamidov 2020: 72]. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" 生活琐事 sheng huo suo shi "Nur borki, soya bor" 光即有影 guāng jí yǒu yǐng asarlari xitoy tiliga tarjima qilingan. Valiyeva N. tomonidan 2012-yil "Dunyoning ishlari" asari tarjima qilindi va bu asar 2021-yil qayta nashrdan chiqarildi. Tarjimon asosan asarning badiiyligini saqlab qolishga harakat qilgan. Valiyeva N. asarning tarjima qilish jarayonida realiyalar va milliy so'zlardan mohirona foydalangan. Dildora Ismoilova "Nur borki soya bor" 光即有影 guāng jí yǒu yǐng asarlari xitoy tiliga tarjima qilingan. Tarjima jarayonida Ismoilova D. so'zma-so'z tarjimadan qochadi, semantik (mazmuniy) va madaniy ekvivalentlik usulidan foydalangan holda xitoy madaniy tafakkuriga mos tarzda asar mazmunini yoritib bergan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, turli tillarga tarjima jarayonida asardagi milliy koloritni saqlab qolish, shu bilan birga, xorijiy o'quvchi uchun uni tushunarli shaklda yetkazish — tarjimon mahoratini namoyon etuvchi asosiy omillardan biridir. Shuningdek, O'tkir Hoshimov asarlarining tarjimalari til va madaniyatlararo o'zaro ta'sir, semantik moslashuv, ekvivalentlik va adekvatlik masalalarini chuqur o'rganish uchun muhim manba vazifasini bajaradi. O'tkir Hoshimov asarlarining xorijiy tillarga tarjimalari o'zbek adabiyotining global adabiy jarayonga integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Bu jarayon tarjimashunoslikda ekvivalentlik,

madaniy moslashuv, milliylik va badiiylik kategoriyalarini ilmiy asosda tadqiq etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. O‘tkir Hoshimov ijodi misolida milliy adabiyot namunalarining jahon adabiyoti bilan mushtaraklikda rivojlanish jarayonini, shuningdek, milliy g‘oya va badiiylikni boshqa tillarda ifodalash imkoniyatlarini o‘rganish istiqbollari yanada kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- [1] Riz M., Ro‘ziyev A. Such is Life: Stories by Otkir Hoshimov. – London, 2024.
- [2] Галина Антоновна Коваль. “Дела земные” ГБУК “Издатель” – 2017.
- [3] Hamidov X. O‘tkir Hoshimov asarlari turk tilida. – Toshkent: “Nodirabegim” nashriyoti, 2020.
- [4] O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1982.
- [5] <https://www.gazeta.uz/oz/2024/04/15/dunyoning-islari>